

**AMIR TEMURNING 1391- YILDAGI TO‘XTAMISHXONGA QARSHI
YURISHIDAGI RAZVEDKA VA KONTRRAZVEDKA TADBIRLARI**

**INTELLIGENCE AND COUNTERINTELLIGENCE ACTIVITIES OF AMIR
TEMUR IN PAHOD 1391 AGAINST KHAN TOKHTAMYSH**

**РАЗВЕДДОВАТЕЛЬНАЯ И КОНТРРАЗВЕДДОВАТЕЛЬНАЯ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АМИРА ТЕМУРА В ПАХОДЕ 1391 ГОДУ ПРОТИВ ХАНА
ТОХТАМЫША**

Mamajonov Soyibjon Halilovich

*Farg‘ona Davlat Universiteti harbiy ta’lim
fakulteti o‘qituvchisi, dotsent.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning 1391-yildagi To‘xtamishxonga qarshi yurishidagi razvedka va kontrrazvedka tadbirlari xaqida qisqa yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O‘rta maxsus ta’lim muassasalari talabalariga harbiy san’at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo‘ljallangan.*

Аннотация: В данной статье кратко описывается разведывательная и контрразведывательная деятельность Амира Темура в его походе против хана Тохтамыша в 1391 году. Данная статья предназначена студентам высших и средних специальных учебных заведений для ознакомления с секретами военного искусства.

Annotation: This article briefly describes the intelligence and counter-intelligence activities of Amir Temur in his campaign against Tokhtamysh Khan in 1391. This article is intended for students of higher and secondary special educational institutions to familiarize themselves with the secrets of military art.

Kalit so‘zlar: *Sarkardalik iste’dodi, o‘rdalar, Oltin O‘rda, harbiy yurishlar, maxfiy xizmat, josuslar, Ibn Arabshoh, jang bilan razvedka, ilg‘or qismlar, Tobol daryosi.*

Ключевые слова: Руководство, орды, Золотая Орда, военные походы, секретная служба, шпионы, Ибн Арабшах, боевая разведка, передовые части, река Тобол.

Key words: Leadership, hordes, Golden Horde, military campaigns, secret service, spies, Ibn Arabshah, combat intelligence, advanced units, Tobol River.

Amir Temurning sarkardalik iste'dodi uning To'xtamishga qarshi yurishlari chog'ida asosan razvedka va kontrrazvedka tadbirlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

O'rta davrda Soxibqiron xayoti va faoliyatidagi sirli voqealar uni yaratgan maxfiy xizmati yani razvedka va kontrrazvedka bilan bog'liq bo'lgan. Amir Temur maxfiy xizmati xaqida eng aniq ma'lumotlarni uning zamondoshi Ibn Arabshoh keng yoritib beradi. Uning satrlarida Amir Temur maxfiy xizmatining shaxsiy tarkibi xaqida bebaxo ma'lumotlar mavjud.

-U, deb yozadi Ibn Arabshoh, - qo'lostida hududlarning barcha tomonlariga o'z ayg'oqchilarini (sirli agentlarini) tarqatib, qolgan qismiga esa josuslarni (shpionlarni) qo'ygan edi.

Josuslarning biri Qoxirada bo'lsa, ikkinchisi Damashkda va Shamiysoniyadagi sufilyardan biri bo'lidan. Ulardan birichisi chakanafurush bo'lsa, ikkinchisi yirik savdogar, badxulq polvon va dorboz, jafokor va xunarmand, munajjim va o'z tabiaticha ish qiladigan gapga chechan qalandarlaru - sayyoh darveshlar, dengizchi malloxlaru quruqlikdagi sayyoqlar, zarofatli meshkoqlar, latofatli etikdo'zlar bo'lib, ilm talabida mag'ribu mashriqni kezgan, o'z maqsadi yo'lida makru hiyla maqonida kamolga yetgan, o'zining nozik firibi va daxosi bilan, suv bilan olov, to'g'rilik bilan egrilik o'rtasida o'nib o'sgan, ikki muxolifni bir-biriga biriktirib, ikki dushmani bir-biriga qo'shgan uddaburon kishilar edi.

Amir Temurni yoqtirmagan Ibn Arabshoh o'zi bilmagan va istamagan holda xali hech kim yozmagan mavzuni yoritib, bizlar uchun qimmatli ma'lumotlar qoldirgan.

Tuxtamishxonga qarshi 1391 yildagi jang bilan razvedkani amalga oshirgan usullaridan biri.

To'xtamishga qarshi 1391-yilgi yurishi davomidagi o'lkan ovdan keyin jangchilar go'shtga to'yib, kuch-kuvvatga to'lidan so'ng uchinchi kun jangovar ko'rik o'tkazildi.

Jangchilar, bahodirlar, o'nboshi-yuzboshilarga ko'rikdan so'ng mukofotlar berishga buyruq berildi. Agar oddiy askar olti dinordan olgan bo'lsa, mingboshi, bek va amirlarga shoxona xadyalar berildi. Martabalari yana bir pog'ona oshdi. O'zining maxfiy xizmati raxbarlari Amir Otlamish va Mas'ud Kujijoniyni esa alovida yuksak mukofotladi. Va ularning maxfiy axborotlari va rejalarini qunt bilan tingladi.

Ertasiga esa lashkar va xizmatchilardan iborat to'rt yuz ming kishilik qo'shin va minglab tuyalardan iborat karvon yo'lga tushdi. Tuyalar va otlar tuyoqlari zarbidan Dashti Kipchoq larzaga keldi.

Lashkarning ilg'or - manglay qismini taxt valiaxdi amirzoda Muhammad Sulton o'n nafar tajribali amirlar bilan boshqargancha ilgarilab ketdi. Ulardan ham oldinda Amir Otlamishning yigitlari o'z ishlarini bajarmoqda edilar. Bu tajribali, jangovar vazifalarga mo'ljallangan, bo'lib o'tgan janglar davomida toblangan harbiy razvedkachilar edi. Ular

dushman kuchini, manzilini, egallagan marralarini, yashirin pistirmalarini aniqlabgina qolmay, dushmanga to'satdan xujum qilib ularda g'ulg'ula, vaxima uyg'otish so'ng esa to'satdan izlariga qaytish soxasida ustasi faranglar edi. Ular Oltin O'rda razvedkasining nozik xiyla turlarini olib tashlashdi. Ulardan birinchisi gulxanlar aldovi edi. Tobol daryosi yonida o'n yetti gulxan yoqilgan, lekin odamlar yo'q, ikkinchisi Muhammad Sulton qurdirgan ko'priklar asosiy qo'shin ilg'ori kelganda buzdrib yuborilgan. Uchinchi tur esa soxta pistirma. To'rtinchisi esa omonat ovul va unda qavmidan ajratib majburan shu joyga o'rnashtirilgan odamlar. Beshinchisi esa To'xtamishxonning kuzatuvga qo'yilgan josuslar bo'linmasi edi. Va nixoyat, oltinchisi daryoning uch kechuvida qo'yilgan pistirmalar. Nixoyat razvedkachilarning yettinchi va katta yutug'i To'xtamishxon ayg'oqchisini topib, undan Oltin O'rda xoni rejasini aniqlash bo'ldi. Bu reja nixoyatda ustalik bilan makkorona tuzilgan edi.

To'xtamishning ilg'or qismlari xar zamonda uzoqdan o'zini ko'rsatib, Shimol tomonga chekinib borardi. Ular bir necha bor Amir Temur lashkarini botqoqliklar va chakalakzorlarga boshlab kirishga urinib ko'rdi. Ammo Soxibqironning razvedkachilari dushmanning bu hiylalarini aniqlab va xar bir yangilikni vaqtida Sohibqironga yetkazib turdilar.

Bu razvedkachilar boshlig'i amir Muboshir Amir Temurning bolalikdagi o'rtog'i va yoshlikdagi do'st-birodari, so'ng esa shaxsiy soqchilar boshlig'i bo'lган. U extiyotkorlikni tadbirkorlik bilan, mardlikni jasorat bilan uyg'unlashtirgan edi.

Razvedkachilar bir to'qayzorda osmonga bo'y cho'zgan tutun ko'rdilar. So'ng dushmanga nazarları tushdi. O'rtadagi shiddatli jangda mo'g'illar tor-mor bo'ldi. Qirq kishi asir olindi. Ular so'roqda To'xtamish lashkarining ilg'or bo'linmasidan ekanliklarini va yo'lda yana shunday qorovul bo'linmalar borligini aytib berishdi.

Sohibqiron bu axborotdan so'ng maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linma qo'mondoni Amir Jalolni yoniga chaqirdi.

— Sizlar qorovul bo'linglar, qachonki dushman lashkarining qorasi ko'rinsa va agar ular ko'p bo'lsa, uzoqdan bo'linmangizni bir qismini ko'rsatinglar va shunday xarakat qilinglarki, ular aldanib qaytib ketsinlar. Darhol bizga bu haqida xabarchi kelib yetkazsin deb vazifa qo'ydi.

Ko'p o'tmay Amir Jaloldan odam kelib, dushmanning qorovul qismi joylashgan manzillar xususida xabar berdi. Soxibqiron eski va sinalgan safdoshi Idiku Temurga bir jamoa o'n askarlar bilan ko'rsatilgan manzilga borishni buyurdi.

Idiku Temur ko'p suvlardan va loy-u balchiqlardan o'tib bir tepalikda dushman qorovullarini ko'rdi. Ular tog' ustida yo'lni nazorat qilib turishar edi. O'n askardan iborat bir kichik bo'linmani ular qarshisiga yuborgan Idiku Temur ish jiddiy ekanligini payqdadi. U

yuborgan bo'linma jang boshlab dushman marrasini ishgol qildi. Idiku Temur ular tomon yaqinlashayotgan Sovut kiygan qo'shin kelayotgani xaqida ulardan xabar oldi. Yana uzoqdan saf-saf tortgan Tuxtamish qo'shinini ham ko'rishgani ma'lum bo'ldi. U darhol yonida turgan navkariga Sohibqironga bu xabarni yetkazishni topshirdi va o'zlarini mo'g'illar bilan tengsiz jangda halok bo'lishdi.

Idiku Temur safdoshlari bilan birgalikda oldilaridagi vazifani to'liq bajarishgan edi va ular tamonidan aniqlangan ma'lumotlar Amir Temur uchun juda kerakli bo'ldi.

Amir Temur janglarga doyimo shunday mukammal tayyorgarliklarni ko'rgan. U dushman haqidagi ma'lumotlarni va joyni hususiyatini puhta o'rganib chiqgach undan hulosa qilgan, o'z qo'mondonlariga yashirin holda kerakli tavsiyalarni bergen.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalilovich.M.S/ (2022). Sultan Jalaliddin Manguberdi's Struggle Against the Mongolia Invasion. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 5, 80-81.
2. Xalilovich, M.S. (2022). AT THE SAME TIME, SPITAMEN'SCAVALRY WAS THROWN INTO THE RIVER, AND AN ATTEMPT WAS MADE TO HIDE ON ONE OF THE ISLANDS IN THE MIDDLE OF THE RIVER. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 615-617.
3. Khoshimov, A., Mamajonov, S., Bahramov, K. (2022). About Valence of the Word in the Uzbek Language. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 2(2), 136-139.
4. Harbiy tarix, darslik S.Mamajonov. Toshkent 2021.